

## Mavsumiy allergiya – undan xalos bo'lish mumkinmi?

Kundalik turmushimizda turli kimyoviy vositalarning ko'p qo'llanilishi, noto'g'ri ovqatlanish, ekologiyaning buzilishi kabi omillar allergiyaga sabab bo'lmoqda. Allergiyaning turlari ko'p, masalan: teri, oziq-ovqat, nafas yo'llari, dori va hasharot allergiyasi(insekt) va mavsumiy allergiya ya`ni pollinoz ham shular jumlasidandir.



Pollinoz - o'simliklar changi sabab bo'luvchi kasallikdir, bu kasallikka chalinish asosan mart, aprel oyalaridan boshlanib, boshoqli, sho'ra va shuvoq o'simliklari gullashi davri-noyabr oyi oxirigacha davom etadi. Ayniqsa, mevali daraxtlar gullaganda kuchayadi. Agar vaqtida e'tibor qilinmasa, pollinoz ham keyinchalik surunkali bronxial astma kasalligining kelib chiqishiga sababchi omil bo`lishi mumkin.

Ko'zda, burunda, organizmning shilliq qavatlari mavjud. Changlar ko'zga ko'rinas bo'ladi. Juda mayda bo'lgani uchun changlar ko'z va burun bo`shlig`ining shilliq qavatlari ustiga yopishib, aksirganda organizmda kuchli reaksiya paydo bo'ladi. Kimgadir 1- 2 soatda, yana kimgadir esa 24 soat ichida reaksiya berishi mumkin. Shu vaqt o'tgandan so'ng uning belgilari paydo bo'la boshlaydi.

Pollinoz kasalligi yuqorida ta'kidlaganimizdek o'simlik guli changi bilan bog'liq xastalik bo'lgani uchun u asosan allergik rinit (burun bitishi, oqishi, qichishishi, aksirish), allerik konyuktivit (ko'z yoshlanishi, qichishishi, qum kirib qolgandek hissiyot bo`lishi kabilari) yoki bo`lmasa allergik rinokonyuktivit (ham burunda ham ko`zda yuqoridagi belgilar birgalikda kelishi) ko`rinishida kechadi. Kasallik avj olishini kutib turmasdan uning oldini olish zarur va buning iloji bor.

Profilaktik davo maqsadida ayni bahor mavsumida inson o'zini changdan himoya qilishi, parhez tutishi, burun bo`shlig`i va tomoqni tez-tez oddiy suv yoki tuzli suvda chayishi, turli zararli odatlar - ichish, chekishdan voz kechishi, vaqtiga vaqtiga bilan allergolog ko`rigiga borishi, asosan qish faslida nazoratdan o'tishi, antigistamin dori vositalari, burun bo`shlig`iga ishlatalinadigan tomchi, purkaluvchi sintetik glyukokortikosteroidlarni va allergiyaga qarshi vaksinani shifokor nazoratida qabul qilish tavsiya qilinadi.

Davolash ishlari allergolog nazoratida olib borilsa, bemor butunlay bu kasallikdan tuzaladi.

**Sherzod Muxtorov,**  
**O'zR FA Immunologiya instituti ilmiy xodimi,**  
**allergolog-immunolog.**